

## NAVRO'ZONA KAYFIYAT BILAN

Navro'z umumxalq bayrami munosabati bilan Toshkent shahrida tashkil etilgan bayram sayllarida Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti yoshlar ittifoqi a'zolari faol ishtirok etishdi.

Talabalar tomonidan bayram dasturi tayyorlanib Toshkent shahri «Xalqlar do'stligi» maydonida Samarqand, Jizzax, Sirdaryo viloyatlari urf-odatlarini, milliy qadriyatlarimiz namoyish etildi. Qiziqarli o'yinlar, viktorinalar tayyorlanib xalqimiz kayfiyatiga kayfiyat ulashildi. Bayramona kuy-qo'shiqlar, tosh ko'tarish musobaqalari, milliy o'yinlarimiz o'tkazildi.

Institut talabalari chiqishlari Yoshlar, «O'zbekiston 24» telekanallari orqali namoyish etildi. Bayram davom etadi 23-24 mart kunlari «Xalqlar do'stligi» va boshqa bayram tadbirlari tashkil etiladigan hududlarga siz ham oila a'zolaringiz bilan tashrif buyuring. Faol bo'lish sharaf.



**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**